

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14559724>

ZAMONAVIY SHAROITDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI

Mamadiyeva Shohsanamxon Hamdamovna

Marg‘ilon shahar 19 - davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti direktori

***Annotatsiya:** Dunyoda shaxsning ijodiy faoliyatini rivojlantirish shakllantirish kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ta’lim sifatini oshirishda yangi ijtimoiy ehtiyoj va zamonaviy talablarga javob beradigan ijodkor kadrlarni tayyorlashni taqozo etmoqda. Xalqaro miqyosda shaxsning ijodkorlikka tayyorgarligini rivojlantirish va metodik amaliyotini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etib, xalq ta’limi tizimini modernizatsiyalash, bugungi kun talablariga mos ravishda integratsiyalash, kompetensiyalarga asoslangan ta’lim dasturlarini joriy etish, bolalarining ijodkorlik faoliyatlarini shakllantirishga xizmat qiluvchi ilg‘or innovatsion mexanizmlarni ishlab chiqish dolzarb muammo sifatida e’tirof etilmoqda. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy faollikni shakllantirish texnologiyalari, imkoniyatlari, pedagogik shart- sharoitlari kabi masalalar yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Zamonaviy yondoshuv, ijodkorlik, ijod, tanqidiy fikrlash, kompetensiya, ijodiy faoliyat, ijtimoiy ehtiyoj, qobiliyat, kreativlik.*

ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНИКА В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ

***Аннотация:** Развитие творческой активности человека в мире требует развития профессиональной компетентности, повышения качества образования, подготовки творческих кадров, отвечающих новым социальным запросам и современным требованиям. На международном уровне большое значение имеют развитие готовности человека к творчеству и формирование методических практик, модернизация системы государственного образования, интеграция ее в соответствии с требованиями сегодняшнего дня, внедрение*

компетентностных образовательных программ, разработка передовых инновационных механизмов, которые служат формированию творческой деятельности детей, признаны актуальной проблемой. В данной статье рассматриваются такие вопросы, как технологии, возможности и педагогические условия создания творческой деятельности у детей дошкольного возраста.

Ключевые слова: Современный подход, креативность, креативность, критическое мышление, компетентность, творческая активность, социальная потребность, способность, креативность.

PROBLEMS OF DEVELOPMENT OF CREATIVE ACTIVITY OF PRE-SCHOOL CHILDREN IN MODERN CONDITIONS

Abstract: The development of creative activity of a person in the world requires the development of professional competence, the improvement of the quality of education, the training of creative personnel who meet the new social needs and modern requirements. At the international level, the development of a person's readiness for creativity and the formation of methodical practices are of great importance, modernizing the public education system, integrating it in accordance with today's requirements, introducing competency-based educational programs, and developing advanced innovative mechanisms that serve to form the creative activities of children. exit is recognized as an urgent problem. This article covers issues such as technologies, possibilities, and pedagogical conditions for creating creative activity in preschool children.

Key words: Modern approach, creativity, creation, critical thinking, competence, creative activity, social need, ability, creativity.

KIRISH

Uzluksiz ta'lim tizimiga maktabgacha ta'lim jarayoni bola shaxsining rivojlanishi, atrof olamni idrok etishi, bilimlarni o'zlashtirilishi malaka va ko'nikmalar, ilmiy tasavvurlarning hosil bo'lishida muhim bosqich hisoblanadi. Ma'lumki, maktabgacha ta'lim tarbiyachilarida bilish jarayoni tasavvur, ijodiy faoliyat natijasida yuz beradi. Bolaning berilgan topshiriqni bajarish jarayonida izlanishi, ijodiy faoliyati namoyon bo'lishi uchun aniq maqsadga yo'naltirilgan, rejalashtirilgan, me'yor va mezonlarga ega bo'lgan, o'z-o'zini anglagan faoliyat zaruriyati seziladi. Bu esa bolada

atrof -olam ob'ektlari va ular haqidagi bilimlarni o'zlashtirish; ta'lim samaradorligini vujudga keltirish, faoliyatning avvalgi turlariga tayanishni taqozo etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy faollikni shakllantirish texnologiyasini ishlab chiqish muammosi ko'p qirrali pedagogik-psixologik ijtimoiy vazifalardan biri bo'lib, jamiyat ijtimoiy rivojlanishi va taraqqiyoti uchun dolzarb vazifalardan biridir.

Maktabgacha ta'lim jarayoni, birinchi navbatda, gumanizm prinsipi asosida tashkil etilishi kerak. Chunki O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi siyosati milliylik xarakteriga egaligi bilan ajralib turadi. Insoniylik prinsipi asosida tashkil etiladigan maktabgacha ta'lim jarayoni bolalar erkin rivojlanishini ta'minlashi kerak. Butun dunyoda ro'y berayotgan integratsiyalashuv va globallashtirish jarayoniga bog'liq holda ta'limning mazmun-mohiyati ham o'zgarib bormoqda. Shu bois maktabgacha bolalarning muhim vazifasi – o'z-o'zini anglash salohiyati, yangi intellektual darajaga ega bo'lgan mustaqil fikrlovchi shaxsni shakllantirish vazifasi qo'yilmoqda. Bunday bolalar nazariy tafakkur yuritish, ijodiy faoliyatni amalga oshirish, o'z xatti-harakatlari va faoliyatini mustaqil boshqarish imkoniyatiga ega bo'lishlari lozim.

Xususan, "Shaxsdagi ijodkorlik xususiyatlarini qanday tarbiyalash mumkin?"- degan dolzarb muammo bugun paydo bo'lmagan. Azal-azaldan ijodkorlikning boshlanishi bo'lgan insondagi ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish masalasi bevosita bolalar ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi pedagoglarni ham, tadqiqotchilarni ham hozirgi davrgacha qiziqtirib keladi. Ta'lim va tarbiya, shaxsning j a m i y a t d a shakllanishi, qobiliyatlarni rivojlantirish hanuzgacha pedagogikaning eng dolzarb masalasi bo'lib qolmoqda.

Zamonaviy ta'lim konsepsiyasining asosiy xususiyatlaridan biri uning insonparvarligi va ijtimoiylashuvi hisoblanadi. Insonparvarlik bilimning "milliylashuvi"ni taqozo etadi, ya'ni o'quv jarayoni shunday tashkil qilinishi kerakki, bunda bilim shaxsiy ma'no-mazmunga ega bo'ladi. Ta'limning insonparvarligi shaxsni barkamol rivojlantirish, uning ijodiy salohiyatini yuksaltirishning asosiy shartlaridan biri sanaladi.

Ijtimoiylashuv mohiyatida ma'naviy madaniyat, ijodiy faoliyatga yo'naltirish, ilmiy izlanish metodlari bilan qurollanishga chorlash yotadi. Bunda ilmiy bilishning evristik usul va metodlari alohida o'rin tutadi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida bolalardagi yashirin iste'dodlarni yuzaga chiqarish, kichik maktab yoshidan boshlab o'z faoliyatini namoyon qilishi uchun imkoniyat yaratish, ulardagi ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish kelajakda yuksak salohiyatli, ijtimoiy faol, o'tkir zehni, kashfiyotchilik qobiliyatini namoyon eta oladigan raqobatbardosh kadrlarni voyaga etkazish garovi bo'lib hisoblanadi.

Bu davlatimizning ustuvor yo'nalishlaridan biri – har tomonlama barkamol insonni voyaga etkazish g'oyasiga mos keladi. Maktabgacha ta'limda bolalarda ijodiy faollikni shakllantirish ta'lim-tarbiya jarayonining muhim tarkibiy qismi sanaladi. Maktabgacha ta'limning faol va etakchi sub'ektlari bo'lgan bolalarning yosh va psixologik xususiyatlari, shuningdek, tasviriy san'at, mehnat, musiqa va jismoniy tarbiyaning o'ziga xos jihatlari tarbiyachidan ijodiy yondashuvni talab qiladi. Bog'cha va tarbiyachining vazifasi bolalarga ta'lim berishgina emas, balki ularning qobiliyatlarini ham o'stirishdan iborat. Qobiliyatlarni o'stirishda o'quv ishining ahamiyati nihoyatda kattadir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Maktabgacha ta'lim tarbiyachisi o'z bolalarida qanday qobiliyatlarning borligi, ularning o'qishga bo'lgan intilishlari, o'quv materialini o'zlashtirish darajalari, eslab qolishlari va o'z bilimlarini topshiriqlarni bajarishda qo'llay olishlari, masalalarni echishda puxta fikr yuritishlari, yozma va og'zaki nutqni qanchalik egallaganliklariga qarab bilib olishi mumkin. Shuningdek, quyidagi sifatlar: ziyraklik, tez va puxta eslab qolish, o'ylay olish, topqirlik, rivojlangan xayol, ishda tashabbuskorlik, mustaqillik va uning mahsuldorligi bolalar qobiliyatlarining ba'zi bir ko'rsatkichlari bo'lishi mumkin.

Pedagog tarbiyachi bolalar bilan har bir ishda tashabbus va ijodkorlik ko'rsatkichlarida ularni har jihatdan rag'batlantirib turishi kerak. Bola qiynalib qolganda unga yordam berishga shoshilish yaramaydi. Qiyinchiliklarni esa asta-sekin oshirib borish lozim. Tarbiyachi ta'lim oluvchilar orasida ijodiy qobiliyati yuqori

bo'lgan bolani tavakkal qilishi; boy tasavvuri; ichki sezgining rivojlanganligi; falsafiy fikrlashi; fikr yuritish va harakatni tashkil etishdagi tezkorligi; tafakkur tezligiga egaligi; turli vaziyatlarni birdek qabul qilishi va ularga javob berishi; yuksak badiiy qadriyatlar, yangilik yaratish layoqatiga egaligi; o'ziga xos original g'oyalarni ilgari sura olish kabi sifatlarga qarab aniqlashi va bu sifatlarni o'quv jarayonida rivojlantirishga e'tibor qaratishi muhim.

Shuningdek, ijodiy faollik quyidagi ichki komponentlardan tashkil topadi:

- o'quv topshiriqlarini bajarishga tayyorlik;
- mustaqil faoliyatga intilish;
- topshiriqlarni ongli bajarish;
- o'qishning tizimliliigi;
- o'zining shaxsiy imkoniyatlarini oshirishga harakat qilish va boshqalar.

Maktabgacha ta'lim tarbiyachisi bolalarda ijodiy faollikni shakllantirishda qator tamoyillarga amal qilishi talab etiladi:

1. Ta'limni individuallashtirish.
2. Ta'limni rivojlantirish.
3. Faoliyat turlariga qulay sharoitlarni yaratish.
4. Bolalar qobiliyatlarining faoliyatda namoyon bo'lishiga imkoniyatlar yaratish.
5. Faoliyatlar (ishlar) imkoniyatlaridan unumli foydalanish.
6. Ta'limning rivojlantiruvchilik tamoyilini qo'llash.

maktabgachasin tarbiyachisi bir nechta fandan mashg'ulot berishini inobatga oladigan bo'lsak, u o'z bolalarining ijodiy faolligini rivojlantirishda quyidagilarni ham inobatga olishi lozim:

– bolalarning o'quv predmetlari ichida qay biriga ko'proq qiziqishi va iqtidorini aniqlash;

– mashg'ulotlar bo'yicha tayyorlangan materiallar, masala, topshiriqlarning murakkabligi, ijodiyliigi, ilmiy-tadqiqot darajalarini o'z ichiga olgan holda ijodiy faollikni bolalar bilan ishlash buyicha tematik reja va dasturlarini tuzish;

– bolalarda ijodiy faollikni shakllantirish yuzasidan individual ish rejalari ishlab chiqish.

NATIJAR VA MUHOKAMA

Shunday qilib, maktabgacha yoshdagi bolalarda faoliyatni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari bilan biz pedagogik jarayonning bir qator kompleks ijod qilishni tushunamiz, ularning amalga oshirilishida maktabgachasinf bolalarning ijodiy faolligini rivojlantirish darajasini oshirishga qaratilgan deb o'ylaymiz.

Pedagogik shart-sharoitlarni qo'llash samaradorligi:

-qo'yilgan maqsadlarni yakunlash aniqligi, erishish kerak bo'lgan natijalar;

-pedagogik jarayonning funksiyasi va takomillashtirilishi bilan o'zaro bog'liq bo'lgan shart-sharoitlar majmuasi orqali amalga oshirilishini tushunish.

Bundan ko'rinadiki, bizning olib borayotgan tadqiqot ishimizda, agar shart-sharoitlarning to'liq kompleksi amalga oshirilsa, maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy faolliyatini rivojlantirish jarayoni samarali bo'ladi, chunki tasodifiy, to'g'ri kelmaydigan sharoitlar tadqiqotning maqsadini samarali hal qila olmaydi.

Hozirgi rivojlangan va zamonaviy sharoitda maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy faolliyatini rivojlantirish muammolarini tahlil qilish bizga maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy faolliyatini rivojlantirish darajasini oshirishga yordam beradigan quyidagi pedagogik shart-sharoitlarni ajratishga imkonini berdi:

a) ta'lim jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalarni ijodiy faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturini ishlab chiqish va joriy etish;

b) ota-onalar "Ota-onalar bilan hamkorlikda ijod" dasturi asosida maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishga tayyorgarlik ko'rish va ko'maklashish;

g) maktabgacha ta'lim tashkilotlarida har bir bolaning qiziqishini inobatga oladigan to'garaklar tashkil etish.

Tarbiyachi mashg'ulot ishlanmasi tuzishda bolalarning ijodiy faolligini rivojlantirishda samarali natija beradigan quyidagi faollashtirish vaziyatlarini inobatga olishi muhim:

- o'z fikrida turish;
- bahs-munozaralarda ishtirok etish;
- o'z o'rtoqlari va tarbiyachi oldiga savollar qo'yish;
- o'rtoqlarining javoblarini izohlash;
- o'rtoqlarining javobi va yozma ishlarini baholash;

- orqada qolganlarga ko‘maklashish;
- bo‘sh o‘zlashtiruvchilarga tushunmaganlarini tushuntirish;
- kuchi etadigan topshiriqni mustaqil tanlash;
- biluv topshiriqlarining bir necha variantdagi echimini topish;
- o‘z-o‘zini tekshirish, o‘zining biluv va amaliy xatti-harakatlarini tahlil qilish vaziyatlarini yaratish;
- biluv topshiriqlarini o‘ziga ma’lum bo‘lgan amallarni kompleks qo‘llagan holda bajarish.

XULOSA

Biz quyida tarbiyachilar uchun bolalarda ijodiy faoliyatni rivojlantirish yuzasidan o‘quv vaziyatlarini yaratish va o‘tkazish texnologiyasini ishlab chiqish yuzasidan yo‘l-yo‘riqlarni ishlab chiqishga harakat qildik va uni keltirib o‘tamiz:

1. Izlanuvchi vaziyatning asosiy ta’limiy ob’ektini (narsa, tushuncha, hodisa, jarayon, an’ana, buyum va boshqalar). Bunda ob’ekt va bolalar uchun qiziqarli bo‘lgan muammoni aniqlash; bolalarga ularning o‘rganilayotgan ob’ekt bilan shaxsiy ichki aloqasini topishga yordam berish, ular uchun shaxsan ahamiyatli muammolarni qanday tayyorlash bo‘yicha o‘ylashga yo‘naltiradi. Buning uchun shaxsiy tajriba va bolalarga qo‘yiladigan ta’limiy natijalar ta’minlanadi.

2. Bolalarga echimi noma’lum bo‘lgan muammo yoki topshiriq beriladi. Ushbu topshiriqni amalga oshirish sinfda ta’limiy ko‘tarinkilik hamda bolalar topshiriqni bajarish orqali o‘zlarining faolligini namoyon etgandagina samarali bo‘ladi.

3. Topshiriqning ta’riflanishi muammoni jamoa bo‘lib muhokama qilishning natijasi bo‘lishi mumkin. Bolalar tomonidan ta’riflangan topshiriq shunchaki qiziqarli emas, balki tarbiyachi uchun yangilik bo‘lsagina maqsadga erishilgan bo‘ladi.

4. Bolaning o‘zi paydo bo‘lgan yoki yaratilgan vaziyat (topshiriq)ni shaxsan hal etishga imkoniyat yaratish - evristik vaziyatning asosiy bosqichi sanaladi. Bunda har qanday ta’lim natijasidan ijod belgisini aniqlash lozim.

5. Bolalarning ta’limiy ijod namunalarini namoyish etish: she’rlar, rivoyatlar, topshiriqlar, ta’riflar, ramzlar, rasmlar, loyihalar va shu kabilarni jamoada muhokama etib, ko‘rgazmalar tashkil etish, o‘zaro yozma taqrizlar yozdirish, ma’ruzalar bilan chiqishlar qilish.

6. Ta'limiy ijod na'munalari namoyish etilgandan keyin rasmlar, rivoyatlar, ta'riflar, olimlarning fikrlari, mashg'ulotliklaridagi ma'lumotlar, shaxsiy bilim va tasavvurlari bilan asoslay olish.

7. Bolalarning ijod na'munalarini qiyoslash, solishtirish, tasniflash bo'yicha faoliyatini tashkil etish. Bolalar tomonidan o'z qarashlari yoki ijod namunalarini aniqlash hollari yuz bersa, ularga o'z nuqtai nazarlarining o'zgarish sabablarini tushunishlarida ko'maklashiladi. Ta'limiy vaziyatlarning rivojlanishi ta'minlanadi.

8. Bolalarning bilishga oid qo'llanilgan usullar, paydo bo'lgan muammo va uni echish yo'llarini tushunishi bo'yicha fikr yuritish, tahlil etish. Bolalarga individual tarzda erishgan natijalarini aniqlashda ko'maklashish. Jamoa bo'lib yaratilgan ta'limiy natijalarni aniqlash. Maktabgacha ta'lim mashg'ulotlarida bolalarda ijodiy faoliyatni shakllantirishga mo'ljallangan turli ijodiy topshiriqlardan foydalanish asosida bolalarda mustaqil va ijodiy fikr yuritishga zamin hozirlash mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, maktabgacha ta'lim jarayonida bolalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish uchun turli shart-sharoitlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun birinchi navbatda ta'lim talablarini aniqlash va shu talablar asosida uning ustuvor yo'nalishlarini izlanuvchi ta'lim, muammoli vaziyatlar yaratish va ta'limga texnologik yondashuv asosida tashkil etilishi bolalar ijodiy faoliyatini rivojlantirishning samaradorligiga zamin tayyorlaydi. Maktabgacha ta'limda bolalarda ijodiy faoliyatni rivojlantirish o'ziga xos psixologik-pedagogik xususiyatga ega bo'lib, bular bolalarning aqliy faoliyatini rivojlantirish bilan bog'liq holda muammoli vaziyatlar yaratish, mashg'ulotlarga maqsadli yondashuv, bolalarning qobiliyati, qiziqishi, xohish va istaklarini hisobga olish, ahloqiy estetik hissiyotini tarbiyalash, bilimlar tizimi, malaka va ko'nikmalarini faoliyatning turli shakl va metodlarini egallab olishga yo'naltiriladi. Ijodiy faoliyat ta'limning uch turi orqali shaxsning ijodiy faoliyati, bilishga doir faoliyati, tashkiliy faoliyat kabi sifatlarning shakllanishi asosida rivojlanadi va bular ta'limning noan'anaviy shakl va metodlari vositasida samarali natijalarga olib keladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. I.V. Grosheva, L.G.Yevstafeva, D.T.Maxmudova, Sh.B.Nabixanova, S.V. Pak, G.E.Djanpeisova "Ilk qadam" davlat o‘quv dasturi T: 2018. 1-81-b;
2. F.O‘.O‘rinova. Maktabgacha ta’limda STEAM texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma. Farg‘ona. 2024.
3. Urinova F. U. Steam implementation in the organization of activities of the development centers in preschool education //European Journal of Pedagogical Initiatives and Educational Practices. – 2024. – T. 2. – №. 5. – C. 45-49.
4. O‘ljayevna O. F. Et al. Maktabgacha ta’lim tashkiloti boshqaruvining o‘ziga xos xususiyatlari //Pedagog. – 2024. – T. 7. – №. 5. – C. 827-831.
5. Oljayevna O. F. Et al. Tarbiyachi pedagoglarda ijodkorlik sifatlarini rivojlantirish //Samarali ta’lim va barqaror innovatsiyalar jurnali. – 2024. – T. 2. – №. 4. – C. 410-415.
6. Oljayevna O. F. Et al. Bolalarda intellektual qobiliyatni rivojlantirish xususiyatlari //Samarali ta’lim va barqaror innovatsiyalar jurnali. – 2024. – T. 2. – №. 4. – C. 404-409.
7. O‘rinova F., Bozorboyeva O. Maktabgacha yoshdagi bolalar intellektining rivojlanishida nutqning o‘rni //Development and innovations in science. – 2024. – T. 3. – №. 2. – C. 20-24.
8. O‘rinova F. U., Shokirova M. J. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy qobiliyatni rivojlantiruvchi uslubiy shakllar //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 3. – C. 298-301.